

## RANGTASVIRDA RANG UYG'UNLIKLARI

*Solijonova Muhtasaroy Jahongirbek qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi*

*2- bosqich talabasi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqola tasviriy san'atning eng muhim turlaridan biri bo'lgan rangtasvirda rang uyg'unliklari , ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalishi hamda rangtasvirning tasviriy san'atda tutgan o'rni to'g'risida keng fikr yuritadi va amaliy va nazariy ko'nikmalar beradi.

**Kalit so'zlar:** Rangtasvir, joziba , tasviriy san'at, rang, tur, axromatik rang, yorug'-soya, xromatik rang, uyg'unlik, mashg'ulot, ijod, tasavvur, ta'sirli.

Tasviriy san'at insonlarga hayotni aks ettirishda , borliq va undagi go'zallikkarni his etishda , atrofdagi mavjud ranglarni xilma- xilligini ko'ra bilishda yaqindan yordam beradi.

Badiiy madaniyatimizning tarkibiy qismi bo'lgan mazkur san'at milliy va innovatsion izlanishlar , turli uslub va yo'nalishlarni mujassamlashtirgan o'ziga xos ma'naviy makondir. Ushbu san'at insoniyat tarixida juda katta ahamiyatga ega. Odamzot yaralibdiki uning hayotida tasviriy san'atning ilk belgilari paydo bo'lgan. Ushbu san'at insondagi intellektual ma'naviy , xissiy va estetik ehtiyojlarini o'zida mujassamlashtirgan badiiylikka bo'lgan eng yuksak ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi hamda insonlar ruhiy dunyosini boyitadi. Xozirgi paytda tasviriy san'atning bir qancha turlari mavjud bo'lib bular tasviriy san'atning eng jozibali va ta'sirli turi bo'lgan rangtasvir, tasviriy san'atning eng ommaviy turi hisoblangan grafika, borliqni uch o'lchovli shaklda tasvirlaydigan haykaltaroshlik hamda san'atning keng tarqalgan turlaridan biri bo'lgan dekorativ amaliy san'atdir. Tasviriy san'atning eng jozibali turi hisoblangan rangtasvir eng muhim tur ham hisoblanadi. Rangtasvirda asosan bo'yoqlar bilan devor yuzasiga , matoga va boshqa joylarga ishlanadi. Tasvirning xarakteri , mohiyati shunga o'xshash hamma xususiyatlari ranglar , bo'yoqlar bilan ifodalab berilsa , bunga rangtasvir san'ati deyiladi. Tasviriy san'atning bu turida ijodkor insonning ichki his-tuyg'ulari chizayotgan asarida aks ettirilayotgan voqeal- hodisa mazmuni ranglarning bir- biriga me'yorida qo'shib ishlatish natijasida namoyon bo'ladi. Rangtasvirning vazifasi insonni o'rab turgan borliqni va hodisalarini tushunish va ranglarda badiiy aks ettirishdir. Rangtasvir qonun-qoidalarini puxta egallagan kishigina amaliy ijodda samarali shug'ullanishi mumkin. "Kimda kim ilmni amaliyotsiz tasavvur etsa u bamisol suzishga eshkaksiz chiqayotgan qayiq haydovchisidir va u hech qachon qayerga ketayotganligiga to'la ishonch hosil qila olmaydi "deya ta'kidlagan edi Leonardo Da Vinchi . Rangtasvir nafaqat o'zlashtirishda , balki uni o'qiy bilish , idrok qila bilishda ham insondan bilim va malaka talab qiladi.

Rangtasvir deyilganda ko'z o'ngimizga benihoya ranglar kela boshlaydi . Ranglarning borliqda qanday hosil bo'lishi va tarqalishi har bir insonni qiziqtirmay qolmaydi . Qadimda ham ranglarning kelib chiqishi va tarqalishi olim va rassomlarning


diqqatini tortgan . Mashhur olimlar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar . Xususan olim M. V . Lomonosov fanda birinchi bo'lib asosiy ranglarni kashf etgan . Nemis shoiri va san'atshunosи I. V. Gytensi esa "Ranglar haqidagi ta'lilot" nomli asarida ranglarni iliq va sovuq tuslarga ajratgan . XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G. I. Gelmgolt ko'p yillik tajribalari asosida xromatik ranglarning 3 ta asosiy alomati - rang tusi , rangning och - to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash zarurligini ko'rsatdi. Shunday ilmiy izlanishlar va amaliyot jarayonida yana bir qator qonun- qoidalar ishlab chiqilgan va kishilar ijodiy ishida ham o'quv jarayonlarida ham ularga amal qilishi shart. Ranglar uyg'unligi to'g'risida so'z yuritar ekanmiz avvalo tabiatdagi ranglarning xususiyatini bilib olmog'imiz darkor . Ranglar o'z xususiyatiga ko'ra ikki turga ajratiladi . Axromatik va xromatik xillarga bo'linadi . Axromatik ranglarga qora , oq va kulrang kiradi , qolgan ranglar esa xromatik ranglarni tashkil qiladi. Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo'shsak uning jozibaliligi pasayib , nursizlanadi . Bu hol esa rangning kam to'yinganligidan ya'ni uning tarkibida bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Ranglar o'zaro bir biriga aralashganda yana bir qancha tusdagi ranglarni hosil qiladi . Yana ranglar his qilishga ko'ra issiq va sovuq ranglarga bo'linadi . Issiq ranglarga issiqni, olovni, quyoshni, cho'g'ni eslatuvchi ranglar ya'ni qizil, sariq, zarg'aldoq va ulardan hosil bo'lgan ranglar kiradi. Sovuq ranglarga esa sovuqni , muzni ,qorni eslatuvchi ranglar: oq ,ko'k ,yashil va ulardan hosil bo'lgan ranglar kiradi . Mazkur sovuq ranglarga qaraganda kishida sovuqlik hissi uyg'onsa , issiq ranglarga qaraganda esa kishida issiqlik hissi uyg'onadi . Kundalik hayotimizda, hayotiy tajriba asosida ma'lum buyum va narsalarning o'ziga xos ranglarni ongimizga singib boradi (Quyosh - sariq, o'tlar - yashil , osmon - havorang va boshqalar ). Bu ranglar narsalarning shaxsiy ranggi hisoblanadi . Ammo mazkur shaxsiy ranglar turli yorug'lik ta'sirida o'zaro o'zgaruvchan bo'ladi. Qarama - qarshi ranglarning ta'sirida buyumlarning ranggi turlicha ko'rindi.

Rangtasvir insonlar hissiyotlari va xarakterining murakkab dunyosini aks ettirishi bilan birga atrof - tabiatning nozik o'zgarishlari , falsafiy fikrlar va fantastik obrazlar berish xususiyatiga ham egadir. Rangtasvir asarlari ta'sirchanligi, xissiyotliligi bilan boshqa turdag'i asarlardan ajralib turadi . Asosiy ta'sirchanlikni beruvchi vositalardan biri bu rang hisoblanadi. Shuning uchun rangtasvirdagi obrazlar yorqin , kishini o'ziga jalg qiluvchi va tomoshabop deya ta'riflanadi. Mazkur o'ziga xos nafis bu tur insonlar tafakkurining noyob namunasi sifatida kishilarni o'ziga rom qiladi. Rangtasvir san'atning mashhur vakillaridan Rafael Santi, Karl Bryullov, Leonardo da Vinci, Rembrandt, Anri Matiss, o'zbekistonlik mashhur rangtasvir ustalaridan O'rol Tansiqboyev, Malik Nabihev, Bahodir Jalolov , Alisher Alimqulov va boshqa bir qancha rassomlarni aytish mumkin. Chingiz Ahmarov va Rahim Ahmedovlar esa o'nlab san'atkor shogirdlar tayyorlagan rangtasvir ustalaridir.



Rangni har kim o'ziga xos ravishda his qiladi. Rang odamni shodlantirishi, g'azablantirishi, g'amgin qilib qo'yishi , xavotirga solishi ham mumkin. U insonlarni ruhiy dunyosiga katta ta'sir qiladi. Yashil, havorang, ko'k ranglar insonga xotirjamlik ya'ni tasalli beradi .Qizil , sariq, olovrang kabi ranglar esa asabni qo'zg'atuvchi ranglar turkumiga kiradi. Lekin har bir rang inson hayotida katta ahamiyatga ega . Agar ranglar

yo'q bo'lsayu biz manashu atrof- tabiatni faqat oq, qora rangda ko'rsak hayotimiz qanchalik zerikarli , g'amgin bo'lib qolganini anglaymiz . Rang uyg'unliklari borasida so'z yuritar ekanmiz , eng avval rangtasvirdagi issiq sovuq yorug' soyalardagi ranglar tushunchasi haqida to'xtalib o'tishimiz lozim. Avvalo rangtasvirdagi yorug' va soyaning , issiq - sovuq ranglarni ko'ra bilishimiz hamda ularni his qilishimiz lozim. Mazkur qonuniyatning asosi shundaki , rangtasvirdagi yorug' joylar sovuq ranglar bilan tasvirlansa , undagi soyalar issiq ranglar bilan tasvirlanayotgan yorug'liklardagi soyalar sovuq ranglar bilan tasvirlanishi lozim bo'ladi.



Rang insonlarni dam olishiga ham sababchi bo'ladi. Atrofimizda mana shu ranglar mavjudligi uchun ham borliq bizga go'zal va benihoya jozibali ko'rindi chunki rang borliqda mavjud hamma narsalar shakl- shamoyilini, atrof- muhit go'zalligini turli kayfiyat va his tuyg'ularini ifodalay oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

- 1.Abdullayev N.U. San'at tarixi. –T..O'qituvchi, 1986.
2. Abdullayev N.U. San'at tarixi. -2/1. –T.. “San/at tarixi”, 2001.
3. Abdirasilov S., Tolipov N. Rangtasvir . –T.. Bilim ,O'MKXTM, 2005.
4. Egamov X. Bo'yoqlar bilan ishlash . –T.. O'qituvchi, 1981.
5. B Boymetov . Qalamtasvir . Toshkent –“ILMZIYO” -2007.
6. R Hasanov, “Tasviriy san'at asoslari”, Toshkent ,2009.
7. D Po'latov . Tasviriy san'at tarixi .Qadimgi dunyo san'ati. Namangan -2018.